

TARIXIY OBIDALARNI ASRASH ORQALI HUDUDIIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH (SHAHRISABZ SHAHRI MISOLIDA)

Yunus Rajabiy nomidagi

O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

Tillar, ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy madaniyat"

kafedrasi o'qituvchisi

Urinov Islombek Olimjon o'g'li

Yunus Rajabiy nomidagi

O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

Turizm va mehmondo'tlik yo'nalishi

1-bosqich talabasi

Po'latova Ruxshona Yoqub qizi

Annotatsiya Ushbu maqolada O'zbekiston tarixiy-madaniy merosining muhim markazlaridan biri bo'lgan Shahrisabz shahrining tarixiy taraqqiyoti, me'moriy yodgorliklari va ularning bugungi kundagi ijtimoiy-madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, sohibqiron Amir Temur tavallud topgan ushbu zaminda barpo etilgan Oqsaroy majmuasi, Dor-ut Tilovat ansambli, Ko'k Gumbaz jome masjidi hamda Shamsuddin Kulol maqbarasining tarixiy, me'moriy va diniy-falsafiy jihatlari yoritiladi. Maqolada Dor-ut Tilovat majmuasining nomlanishi, uning Qur'on tilovati va islomiy ilm markazi sifatidagi ramziy mazmuni alohida ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, mustaqillik yillarida Shahrisabz shahrini qayta tiklash, madaniy merosni muhofaza qilish va turizm salohiyatini oshirish yo'lida amalga oshirilgan islohotlar yoritilib, shaharni zamonaviy turizm, ekoturizm va milliy madaniyatni targ'ib etish markazi sifatida rivojlantirish istiqbollari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Shahrisabz, Amir Temur, Oqsaroy, Dor-ut Tilovat, Ko'k Gumbaz, Shamsuddin Kulol, tarixiy meros, me'moriy yodgorlik, turizm, YUNESKO.

Abstract: This article analyzes the historical development, architectural heritage, and contemporary cultural significance of Shahrisabz, one of the most important historical and

cultural centers of Uzbekistan. Special attention is given to major monuments built on the birthplace of Sahibqiran Amir Temur, including the Ak-Saray Palace, the Dor-ut Tilovat complex, the Kok Gumbaz congregational mosque, and the Shamsuddin Kulol mausoleum. The study highlights the historical, architectural, and religious-philosophical aspects of these sites, with particular emphasis on the symbolic meaning of the Dor-ut Tilovat complex as a center of Qur'anic recitation and Islamic scholarship. Furthermore, the article examines the reforms implemented during the years of independence aimed at preserving cultural heritage, revitalizing the urban environment, and enhancing the tourism potential of Shahrizabz. The prospects for developing the city as a center of cultural tourism, ecotourism, and the promotion of national traditions are also discussed.

Keywords: Shahrizabz, Amir Temur, Ak-Saray Palace, Dor-ut Tilovat, Kok Gumbaz, Shamsuddin Kulol, cultural heritage, architectural monuments, tourism, UNESCO.

Hozirda kun sayin rivojlanib borayotgan bu zaminni tarixiy joylarsiz tasavvur qilishimiz qiyin. O'zlikni anglash Vatanga muhabbat tuyg'ularini jamlashimiz uchun esa bevosita tarixga yuzlanishimizga to'g'ri keladi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek "Bukilmas iroda va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o'z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishi, bugungi osoyishta kunlar uchun jonini fido qilgan ajdodlarning muqaddas xotirasini yod etib, ezgu ishlarni davom ettirish, safimizda yurgan keksalarni e'zozlash — odamiylikning eng oliy mezonini va bizga tinchlik, omonlik kerak deb yashaydigan bag'rikeng va oliyjanob xalqimizga xos azaliy qadriyatdir"[1].

Shunday ekan o'z millatimiz, Vatanimiz tarixini anglashimiz ayni paytda eng asosiy masala deyishimiz mumkin.

Shahrizabz haqida so'z yuritadigan bo'lsak, Shahrizabz O'zbekiston tarixida muhim o'rin tutgan sohibqiron Amir Temur tavallud topgan joy hisoblanadi.

Uning atrofiga joylashgan Oqsaroy me'moriy yodgorligi A.Temur tomonidan bunyod etilgan. Shimoli-sharqidagi bosh maydonda joylashgan yodgorlik hozirga qadar o'zining muhtasham va hashamatli saroydan iborat ulkan peshtoqi, ikki chekkasidagi minorasi,

saroy poydevorining bir qismi saqlanib qolingan. Shahrisabz oʻzida koʻplab yodgorliklar saqlaydi, balki butun Vatanimiz Oʻrta Osiyo xalqlari tarixida ham muhim oʻrin tutadi.

Oqsaroyning hozirgi koʻrinishi ham salobatli va goʻzaldir. Bu salobatlilik va goʻzallikka gʻishtlarning yaxlit boʻlib koʻrinishini taʼminlash – old va shimoliy sharqidagi devor yuzasini sirkor parchinlar bilan bir tekisda ishlash tufayli erishilgan. Peshtoq ravogʻining eni 22,5 m, bal. 40 m, umumiy bal. 50 m dan oshadi. Peshtoq minorasi ichidagi aylanma zina orqali yuqoriga chiqilgan. Oqsaroyning avvalgi holati toʻgʻrisida faqat yozma manbalarga qarab fikr yuritish mumkin. 20 yil davomida qurilgan bu bino toʻgʻrisida Abdurazzoq Samarqandiy quyidagicha maʼlumot beradi: “Temur ishga yaroqli boʻlganlarning hammasini Xorazmdan Movarounnahrda koʻchirish uchun buyruq berdi”.

Yana bir muhim qadamjo Dorut-tilovat majmuasi boʻlib, koʻrinishi kvadratni eslatadi va uning umumiy maydoni 500 metr² tashkil etadi. Ushbu hudud shahar yuzasidan 2,25 metr balandlikda joy olgan[2]. Mazkur maydon tarkibidagi inshootlarning ayrim jihatlari “Shohi zinda” obidalariga oʻxshash. Shuningdek, Koʻk gumbaz jome masjidi, hamda “Shamsuddin Kulol” masjidi oʻz navbatida “Gumbazi Sayidon” maqbaralari mavjud boʻlib, Mirzo Ulugʻbek tomonidan otasi Xuroson hukmdori Shohruh Mirzo sharafiga atab qurilgan “Koʻk Gumbaz” masjidi devorlariga suls va kufiy yozuvlarda turli xildagi xatlar bitilgan[3].

Dor-ut Tilovat majmuasi Oʻrta asrlarda Movarounnahr hududida islom ilmi, siyosati va madaniy hayotining markazlaridan biri boʻlgan Shahrisabz shahrida joylashgan noyob yodgorliklardan biridir. Bu majmua tarix sahnasida nafaqat meʼmoriy ansambl sifatida, balki diniy va ilmiy markaz sifatida ham muhim oʻrin tutgan. Ammo soʻnggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar bu majmuaning faqat tashqi va umumiy jihatlarini yoritish bilan cheklangan. Aksariyat ilmiy ishlarda Dor-ut Tilovat majmuasining mohiyati, u yerdagi yozuvlar, madrasalardagi ilmiy harakatlar, mahalliy xotira shakllanishidagi roli chuqur tahlil qilinmagan. Bugungi kunda madaniy merosni saqlash, uni zamonaviy texnologiyalar bilan uygʻunlashtirish, mahalliy va xalqaro miqyosda targʻib qilish boʻyicha dolzarb muammolar mavjud.

“Dor-ut Tilovat” atamasi arab tilidan o‘zlashtirilgan bo‘lib, “Qur’on tilovati uyi” yoki “Tilovat etish maskani” degan ma’noni anglatadi. Ushbu nom oddiygina masjid yoki madrasa sifatidagi funksional tavsif emas, balki chuqur ramziy, diniy va falsafiy mazmunga ega. “Dor” so‘zi — “uy”, “makon”, “maskan” ma’nolarini, “Tilovat” esa Qur’on o‘qish, uni mulohaza bilan tinglash va tushunish amali sifatida islomiy tasavvurda alohida e’tibor bilan tilga olinadi¹. Majmua nomining o‘zida Qur’on va ilmning o‘zaro uyg‘unligi mujassam. Bu atama nafaqat fizik makonni, balki ma’naviy fazilatlar jamlanmasini anglatadi. Bu jihat ilgari ilmiy adabiyotlarda yetarlicha yoritilmagan. Holbuki, bunday nom faqatgina madrasa yoki masjidga emas, balki muayyan diniy-falsafiy maktabga ishora bo‘lishi mumkin. Shuningdek, “Dor” atamasi Markaziy Osiyodagi ko‘plab me’moriy yodgorliklarda — masalan, Dor-us Saodat, Dor-ut Ta’lim, Dor-ul Funun — kabi shakllarda uchraydi. Bu esa Shahrisabzdagi “Dor-ut Tilovat” majmuasining yagona emas, balki kengroq ijtimoiy-diniy konsepsiyaning qismi bo‘lganini ko‘rsatadi[4].

Me’moriy obida tarkibiga kiruvchi “Shamsuddin Kulol” maqbarasi majmuanang eng qadimiysi hisoblanadi. Qurilishi Amir Temur farmoni bilan 1378-yil qurilish boshlanib yakuni 1374-yil yakunlangan. Sharafiddin Ali Yazdiy aytishicha Ushbu maqbarada “Shamsuddin Kulol” qabristoni va Amirzoda Umarshayx Mirzo qabri mavjud. Shuningdek Temuriyzoda bo‘lmish Mirzo Jahongir dafn etilgan[4]. Mazkur maqbaralar 1994-1996-yillarda arxeologik tadqiqotlar asosida ikki tarafidagi g‘ishtin ravoqli ayvon qoldiqlari, madrasa darvozaxona va minoraning poydevor qoldiqlari aniqlangan.

Shahrisabz O‘zbekistondagi qadimiy maskanlaridan biri bo‘lib, milodning boshlarida va ilk o‘rta asrlarda Kesh[5] XIII-asrdan esa Shahrisabz nomi bilan urfda bo‘lgan[6]. Biz ushbu manzilgohni 2000 yillik tarixga ega muqaddas qadimiy dargoh sifatida bilamiz.

Mustaqillik yillarida Shahrisabzning biz bilgan yangi qiyofasi shakllandi va shahar markazi qayta qurildi. 1996-yilda 2460 gektarga kengaydi[6]. Amir Temur maydoni tomon o‘tgan yo‘l eng katta yo‘l hisoblanmish Ipak yo‘li ko‘chasi o‘tgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2002-yil 29-martda shaharning 2700 yillik yubileyini nishonlash to‘g‘risida qaror qabul qilindi[7]. Ushbu yubiley butun mamlakatimizda shu bilan birga Shahrisabzda ham keng nishonlandi. Tan’tana

munosabati bilan YUNESKO vakillari ham tashrif buyurishdi va ishtirok etdilar. Shahrisabz Jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. 2002-yil dekabr oyida shaharda ko'plab konferensiya festival va bir qator anjumanlar bo'lib o'tdi.

2014-yil Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti tamonidan "Turizm poytaxti" deb e'lon qilindi[8]. Ushbu maqomni keyinchalik ham saqlab qolishga bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan davlatimiz rahbarining 2023-yil 28-noyabrdagi qarori doirasida ishlab chiqilgan "Viloyatning tog'li hududlarida zamonaviy turizm infratuzilmasini yaratish" bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Xorijiy ekspert va investorlar jalb etilgan holda "Miraki" "Amir Temur" "Uloch" va "Polmon" mahallalarida 240 gektar maydon va qiymati 400 million dallorlik 117 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Loyiha bo'yicha 1700 ga yaqin kishi doimiy ish bilan ta'minlandi.

Shahrisabzni biz faqatgina qadimiy turistik salohiyatga ega maskan sifatida emas balki ekoturizm, milliy madaniyatni keng targ'ib qilish va rivojlantirish sari tashlangan ilk gadamlar deyishimiz mumkin. Negaki u o'zida ko'plab ajdodlar-u buyuklar siymosini o'zida ko'z-ko'z etgan zamin. Bu meros bilan faxrlanishimizni o'zi yetarli bo'lmaydi, balki biz o'zimiz ham ushbu madaniy meros orqali tarixiy obidalari, xalqimizning o'ziga xos urf-odatleri, san'at va adabiyotleri orqali keng yoyish va yildan yilga keladigan sayyohlar oqimini ushlab qolish va yanada kengaytirishimiz lozim.

Xulosa qilib aytganda, Shahrisabz nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo tarixiy-madaniy merosida alohida o'rin tutadigan noyob maskanlardan biridir. Bu zamin o'zida buyuk sohibqiron Amir Temur siymosi, temuriylar davri me'morchiligi, islomiy ilm-fan va ma'naviyat taraqqiyoti bilan bog'liq bebaho tarixiy qatlamlarni mujassam etgan. Oqsaroy, Dor-ut Tilovat majmuasi, Ko'k Gumbaz, Shamsuddin Kulol maqbarasi kabi obidalar nafaqat o'tmish shon-shuhratini aks ettiradi, balki bugungi avlod uchun milliy o'zlikni anglash, Vatanga muhabbat va tarixiy xotirani mustahkamlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida Shahrisabzning qayta tiklanishi, infratuzilmaning rivojlanishi va xalqaro miqyosda e'tirof etilishi ushbu shaharning tarixiy merosini asrash va targ'ib etishga bo'lgan davlat siyosatining amaliy ifodasidir. Xususan, YUNESKO Jahon madaniy

merosi ro'yxatiga kiritilishi hamda "Turizm poytaxti" maqomining berilishi Shahrizabzning global madaniy va turistik maydondagi ahamiyatini yanada oshirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Xotira va qadrlash" kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida 2017-yil 04-aprel. Toshkent www.prizident.uz
2. Drevsyanskaya Lunina S; Usmanova Z; Sultanov X; Shahrizabz.Toshkent; Universitet nashriyoti, 1994-yil. 2 tom -bet.
3. F.Aduxoliqov; A. Razzoqov; K. Rahimov; A.Hakimov; B.Abdulhamid. O'zbekiston obidalaridagi bitiklar qashqadaryo. Uzbekistan today. 2016-yil. 286-239-betlar.
4. R. Mamatov, "Temuriylar davrida diniy-ma'rifiy markazlar," Toshkent, 2004. 122–126-betlar.
5. Sharafiddin Ali Yazdiy; tarjimon O. Bo'riyev Zafarnoma (Movarounnahr voqealari) Toshkent Kamalak nashriyoti 1994-yil 185-186-bet.
6. Kamoliddinov Sh. S.Istoricheskaya geografiya yuzhnaga sogda. I Tokharistana araboyaznhym istochnikam IX - nachala XIII vekov.glava.1.Istoricheskaya yuzhnaga sogda Tashkent.1996.
7. Rajabov Qahramon. Shahrizabz O'zME sh- harfi. Birinchi jild Toshkent.2000-yil.